

Umumxalq xayriya hashari o'tkazildi

// 24.08.2024

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/umumxalq-hashari-o-tkazildi>



Mustaqilligimizning 33 yillik bayramini munosib nishonlash, aholini sog'lom turmush tarziga da'vat etish, sanitariya-gigiyenik madaniyatni targ'ib qilish maqsadida 24-25-avgust kunlari butun respublikamiz bo'ylab umumxalq xayriya hashari o'tkazilmoqda.

Bugun "O'zkiyosanoat" AJ xodimlari uyushgan holda umumxalq hashari tashkil etib, obodonlashtirish ishlarini olib borishdi. Xodimlar tomonidan Jamiyat hududi va xonalari tartibga keltirildi, tegishli yer maydonlari oqlanib, xazonlar yig'ildi.

Umumxalq hashari Jamiyat tarmoq korxonalarida qizg'in davom etmoqda.



"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati